

**KOMPARATIVISTIK PEDAGOGIKA FANINING TADQIQOT
METODLARI**

*University of management and
Future technologies universitetining
Pedagogika va psixologiya talabasi
Tulqunova Barnooy*

Annotatsiya: Ushbu maqolada komparativistik pedagogika fanining mohiyati, uning ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari hamda qo'llaniladigan asosiy metodlari yoritilgan. Shuningdek, pedagogik tizimlarni qiyoslashda qo'llaniladigan empirik, nazariy va statistik usullar tahlil qilinadi. Maqolada xalqaro tajriba, ta'lim tizimlarini solishtirishning ilmiy ahamiyati hamda O'zbekiston ta'lim tizimini takomillashtirishdagi o'rni ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: komparativistika, qiyosiy pedagogika, tahlil, ta'lim tizimi, metodologiya, empirik metod, taqqoslama tahlil.

Abstract: This article analyzes the essence of comparative pedagogy, its scientific research directions, and the main methods used in the study of educational systems. It provides a detailed overview of theoretical, empirical, and statistical methods applied in comparative educational research. The paper also discusses the importance of studying international educational experiences and highlights their role in improving the educational system of Uzbekistan.

Keywords: comparative pedagogy, analysis, education system, methodology, empirical research, comparative analysis, international experience, educational reforms.

Kirish

Komparativistik pedagogika — bu turli mamlakatlarning ta'lim tizimlarini o'rganish, ularni solishtirish, o'zaro tajriba almashish hamda milliy ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan fan sohasi hisoblanadi. Bugungi globallashuv jarayonida har bir davlat o'z ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga



intilmoqda. Shu bois, ta'limni qiyosiy o'rganish, ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Komparativistik pedagogika nafaqat ta'lim mazmuni, balki o'qitish uslublari, boshqaruv tizimi, o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va madaniy muhitini ham o'rganadi. Uning tadqiqot metodlari pedagogika fanining umumiy metodlari bilan uyg'unlikda qo'llaniladi.

Komparativistik pedagogikaning mohiyati va vazifalari. Komparativistika (lotincha "comparare" – taqqoslash) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, pedagogikada bu atama turli mamlakatlardagi ta'lim tizimlarini solishtirish orqali umumiy va farqli jihatlarini aniqlashni anglatadi. Komparativistik pedagogika — bu turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari, pedagogik nazariya va amaliyotlarini solishtirish, ularning o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish orqali ta'lim taraqqiyoti qonuniyatlarini aniqlovchi fan sohasi hisoblanadi. Ushbu fan ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish, ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, o'quv jarayonini modernizatsiya qilish va xalqaro miqyosda ta'lim integratsiyasini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shuningdek, komparativistik pedagogika turli mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamda siyosiy sharoitlarini hisobga olib, ta'lim tizimlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlaydi va shu orqali milliy ta'lim siyosatini takomillashtirishga ilmiy asos yaratadi. Ushbu fan quyidagi vazifalarni bajaradi: turli davlatlarning ta'lim siyosatini tahlil qiladi; ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganadi va milliy tizimga moslashtiradi; xalqaro ta'lim standartlarini taqqoslaydi; ta'limdagi islohotlar samaradorligini baholaydi.

Tadqiqot metodlarining turlari. Komparativistik pedagogika fanining tadqiqot metodlari — bu turli mamlakatlarning ta'lim tizimlarini ilmiy asosda o'rganish, tahlil qilish va solishtirishga xizmat qiluvchi usullar majmuasi bo'lib, ular yordamida ta'lim jarayonining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlanadi, ilg'or tajribalar tahlil qilinadi hamda ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish yo'llari ishlab chiqiladi. Ushbu metodlarga qiyosiy (komparativ) metod, tarixiy metod, tizimli tahlil, empirik va statistik metodlar, sotsiologik tahlil, eksperimental tekshiruv va model yaratish usullari kiradi. Bu metodlar orqali o'quv dasturlari,



ta'lim siyosati, pedagogik tamoyillar, o'qitish va tarbiyalash jarayonlari chuqur o'rganiladi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy xususiyatlari ta'lim tizimiga qanday ta'sir ko'rsatishi aniqlanadi. Natijada komparativistik pedagogika xalqaro tajriba asosida ta'lim sifatini oshirish, milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uni global ta'lim makoniga uyg'unlashtirishga ilmiy asos yaratadi. Komparativistik pedagogika o'z tadqiqotida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanadi. Ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

a) Nazariy metodlar: – Analiz va sintez – pedagogik hodisalarni tahlil qilish, ularning tarkibiy qismlarini ajratish va birlashtirish orqali umumiy xulosaga kelish. – Induksiya va deduksiya – umumiy qonuniyatlardan xususiy holatlarni yoki aksincha, alohida misollardan umumiy g'oyani chiqarish. – Qiyosiy tahlil – ikki yoki undan ortiq ta'lim tizimlarini o'zaro taqqoslab, o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash.

b) Empirik metodlar: – Kuzatish – ta'lim jarayonini tabiiy sharoitda o'rganish. – So'rovnoma va intervyu – o'qituvchi va o'quvchilarning fikr-mulohazalarini aniqlash. – Tajriba (eksperiment) – xorijiy ta'lim amaliyotlarini milliy tizimda sinab ko'rish orqali samaradorlikni baholash.

c) Statistik va sotsiologik metodlar: – Statistik tahlil – ta'lim natijalarini raqamli ma'lumotlar asosida o'rganish. – Sotsiologik tahlil – ta'limga ijtimoiy omillar ta'sirini aniqlash, jamoatchilik fikrini o'rganish.

Xalqaro tajribalarni o'rganishning ahamiyati. Xalqaro tajribalarni o'rganishning ahamiyati shundaki, u turli mamlakatlarning ta'lim tizimi, pedagogik yondashuvlari va innovatsion g'oyalarini chuqur tahlil qilib, ularning eng samarali jihatlarni milliy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish imkonini beradi. Bu jarayon ta'lim sifatini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida yangilash, pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirish hamda xalqaro standartlarga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba taqqosiy tahlil orqali ta'limda mavjud muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etishning eng maqbul yo'llarini topish va milliy ta'lim tizimini globallashtirish sharoitida barqaror rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos yaratadi. Shu bois xalqaro tajribalarni o'rganish – ta'limni



modernizatsiya qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish va yosh avlodni jahon andozalariga mos tarzda tarbiyalashning eng muhim omillaridan biridir. Komparativistik pedagogika xalqaro tashkilotlar (UNESCO, UNICEF, OECD va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim standartlari asosida ish olib boradi. Xorijiy tajribalarni tahlil qilish O'zbekiston ta'lim tizimini isloh qilishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Finlyandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar ta'lim tizimi o'qituvchi shaxsiga e'tibor, o'quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ta'lim sifatini doimiy monitoring asosida baholashga qaratilgan.

Komparativistik tadqiqot bosqichlari. 1. Tayyorlov bosqichi – maqsad va obyekt aniqlanadi. 2. Ma'lumot to'plash bosqichi – tanlangan davlatlar ta'lim tizimi haqida ma'lumot yig'iladi. 3. Tahlil bosqichi – o'xshashlik va farqlar aniqlanadi. 4. Xulosa va tavsiyalar bosqichi – milliy ta'lim tizimi uchun foydali jihatlar tavsiya etiladi. Shu tariqa, komparativistik tadqiqot bosqichlari xalqaro ta'lim tajribalarini chuqur tahlil qilish, ularning foydali jihatlarini milliy sharoitga moslashtirish va ta'limni modernizatsiya qilishga ilmiy asos yaratish imkonini beradi.

Xulosa

Komparativistik pedagogika fanining tadqiqot metodlari ta'lim tizimlarini ilmiy asosda solishtirish va ularning samaradorligini baholash imkonini beradi. Bu metodlar orqali xalqaro tajribani o'rganish, milliy ta'lim tizimini rivojlantirish hamda global ta'lim maydonida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga zamin yaratiladi. Shu sababli komparativistik yondashuv zamonaviy pedagogikani yangilashda muhim o'rin tutadi. Bu bosqichlar orqali o'quv jarayonini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, pedagogik faoliyatni modernizatsiya qilish va xalqaro tajriba asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Shu bois komparativistik tadqiqot bosqichlari ta'lim sohasida ilmiy tahlil, amaliy rivojlanish va xalqaro integratsiyaning muhim poydevorini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xaydarov. S.A. (2025). Oilaviy tarbiyada va maktab tarbiyasida yuzaga keladigan risklar. 16-son. 9-11.



2. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
3. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига руҳий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
4. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
5. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
6. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.
7. Khaydarov S.A. (2025). On analysis of family factors and social creativity issues in the study of the psychological portrait of educational institutions' leaders. Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology ISSN: 1001-4055 Vol. 46 No. 2.
8. Хайдаров С. (2025). Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati. 3 (9). 261-265.